Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBİ VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI



Abdunazarov Dilshoda Akromovna

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abdinazarovadilshoda91@gmail.com

ORCID: 0009-0008-1088-4467

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro moliyaviy tizimda prudensial nazoratning ahamiyati, uning nazariy va me'yoriy asoslari, xususan Bazel qoidalari doirasida shakllangan standartlar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan Bazel I, II va III me'yoriy paketlari mazmuni, ularning bank kapitalini boshqarish, likvidlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishdagi o'zni ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada xalqaro tajribaga asoslanib, prudensial nazorat standartlarining milliy moliya tizimiga tatbiqi, xususan O'zbekiston uchun amaliyotga yo'naltirilgan tavsiyalar berilgan. Bazel qoidalarining tijorat banklari faoliyati samaradorligi, xavflarni boshqarish madaniyati va shaffoflikni oshirishdagi ahamiyati asoslangan holda ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: prudensial nazorat, Bazel standartlari, moliyaviy barqarorlik, bank xavflari, kapital yetarliligi, likvidlik, xalqaro bank nazorati.

Abstract. This article examines the significance of prudential supervision in the international financial system, its theoretical and regulatory foundations, and the standards developed under the Basel framework. The author provides a scientific explanation of the content of Basel I, II, and III regulatory packages, highlighting their role in managing bank capital, ensuring liquidity, and strengthening financial stability. Drawing on international experience, the article presents practical recommendations for applying prudential supervision standards within the national financial system, particularly in Uzbekistan. The importance of the Basel rules in improving commercial banks' operational efficiency, enhancing risk management culture, and increasing transparency is demonstrated.

Key words: prudential supervision, Basel standards, financial stability, banking risks, capital adequacy, liquidity, international banking supervision.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение пруденциального надзора в международной финансовой системе, его теоретические и нормативные основы, а также стандарты, сформированные в рамках правил Базеля. Автором научно освещено содержание нормативных пакетов Базель I, II и III, их роль в управлении банковским капиталом, обеспечении ликвидности и укреплении финансовой стабильности. На основе международного опыта приведены рекомендации по практическому применению стандартов пруденциального надзора в национальной финансовой системе, в частности для Республики Узбекистан. Показано значение базельских правил в повышении эффективности деятельности коммерческих банков, развитии культуры управления рисками и укреплении прозрачности.

Ключевые слова: пруденциальный надзор, стандарты Базеля, финансовая стабильность, банковские риски, достаточность капитала, ликвидность, международный банковский надзор.



KIRISH

Bugungi global moliyaviy tizimda banklar faoliyati ustidan samarali nazoratni tashkil etish, tavakkalchiliklarni boshqarish va barqarorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro standartlarga asoslangan prudensial nazorat mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan prudensial talablar va standartlar xalqaro moliya tashkilotlari, markaziy banklar va nazorat organlari uchun eng asosiy me'yoriy asoslardan biri hisoblanadi.

Bazel qoidalari tarixan uch bosqichda rivojlanib kelgan. 1988-yilda qabul qilingan Bazel I standartlari asosan bank kapitali yetarilishini aniqlashga qaratilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi bank faoliyatining xavf darajasiga mos ravishda minimal kapital talablarini belgilash edi[1]. Keyinroq, 2004 yilda qabul qilingan Bazel II ramkasida kapital yetarilishiga qo'shimcha ravishda xavflarni baholash va nazorat qilishning yanada mukammal talablari, ya'ni uch ustunli yondashuv (kapital talablari, nazorat va oshkor etish) joriy etildi[2].

Jahonda 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz tajribasi esa mazkur standartlarni to'liq qayta ko'rib chiqishni talab etdi va 2010-yilda Bazel III standarti qabul qilindi[3]. Unda likvidlik, kontrtsiklik buferlar, leveraj koeffitsiyenti va sistemaviy ahamiyatga ega banklarga alohida talablar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va tijorat banklari faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida Bazel talablarini bosqichma-bosqich joriy etishni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kapital yetarilishi, likvidlik va xavflarga qarshi barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qator prudensial normativlar joriy qilingan bo'lib, ularda Bazel qoidalari asosiy me'yoriy sifatida xizmat qilmoqda[6]. Xususan, banklar uchun I darajali kapital (CET1) va umumiy kapital (CAR) bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlar Bazel III talablariga yaqinlashtirilmoqda. Shuningdek, stress-testlar o'tkazish, xavflarni ichki baholash tizimlarini rivojlantirish ham amaliy qadam sifatida ko'rilayotir[7].

Ushbu maqolada Bazel standartlarining mazmuni, maqsadi va ularning prudensial nazorat tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi, xalqaro tajriba asosida ularning O'zbekiston bank tizimiga tatbiqi baholanadi va ilmiy tavsiyalar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Prudensial nazorat va uning xalqaro standartlardagi namoyon bo'lishi, ayniqsa Bazel qoidalari doirasida, ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xalqaro miqyosda Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I (1988), Bazel II (2004) va Bazel III (2010) normativlar tijorat banklari faoliyatidagi kapital yetarilishi, likvidlikni ta'minlash va xavflarni baholash sohalarida muhim me'yoriy asos sifatida xizmat qilib kelmoqda [1–3].

Xalqaro moliyaviy institutlar – Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki (World Bank) o'z hisobotlarida prudensial nazorat standartlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roliga alohida e'tibor qaratgan [4–5]. Jumladan, ular prudensial talablarning amalga oshirilishi makroiqtisodiy shoklarga nisbatan bank tizimining chidamliligini oshirishini ta'kidlaydilar.

Milliy darajada esa, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'nggi yillarda banklarning kapital yetarilishi va likvidlik ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha Bazel talablariga mos normativlar joriy etilganligi qayd etiladi [6]. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlikka oid yillik hisobotlari ushbu jarayonning amaliy natijalarini va tendensiyalarini ochib beradi.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar – A.A. Sultanov [7] va Ye.B. Ibrohimova [8] o'z maqolalarida Bazel standartlarining mohiyati va ularni O'zbekiston bank amaliyotida joriy etish mexanizmlari haqida ilmiy asoslangan fikrlar bildirganlar. Ular Bazel talablarining tadbiri orqali banklarda xavflarni boshqarish madaniyati shakllanayotganini va nazoratning institusional bazasi mustahkamlanayotganini ta'kidlaydilar.

Yana bir muhim manba sifatida EY (Ernst & Young) hamda Yevropaning Markaziy banki hisobotlarida Bazel standartlarining bank strategiyasiga, kapital rejalashtirish va xavf tahlili jarayonlariga ta'siri chuqur yoritilgan [9–10].

Umuman, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, prudensial nazoratning xalqaro standartlarga mos tashkil etilishi bank tizimida moliyaviy barqarorlik, xavflarga nisbatan tayyorlik va jamiyat ishonchini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va deduktiv yondashuvlar asosida xalqaro va milliy manbalar o'rganildi. Bazel qo'mitasining rasmiy hujjatlari, XVJ va Jahon banki kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari va bank sektoriga oid statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Bazel standartlarining mazmuni va ularning xalqaro tajribada qanday tatbiq etilayotgani qiyosiy tahlil qilindi hamda O'zbekiston amaliyotidagi holatga mos ravishda baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Prudensial nazorat bank tizimining barqarorligi, shaffofligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalariga ko'ra, har bir davlat o'z milliy moliyaviy tizimida xavflarni bartaraf etish uchun xalqaro tajribaga asoslangan nazorat mexanizmlarini joriy etishi zarur sanaladi [11]. Bazel qoidalari aynan ana shunday mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qiladigan me'yoriy asos sifatida e'tirof etilgan.

Bazel I doirasida faqat kapital yetariligi indikatorlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, Bazel II standartlari kredit, bozor va operasion xavflarni hisobga olish imkonini berdi. Bazel III esa bank tizimini global moliyaviy inqirozlardan himoya qilish uchun likvidlikni boshqarish va stress-senariylar orqali nazoratni kuchaytirishni ko'zda tutadi. Hozirda ko'pgina mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, ushbu talablar bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda [12].

O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank tomonidan 2020-yildan boshlab prudensial nazorat mexanizmlarining takomillashtirilishi bo'yicha bir qator normativ hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, tijorat banklarining kapital yetariligi, likvidlik, konsentratsiya darajasi, affillangan shaxslar bilan operatsiyalar, nuqsonli aktivlar (NPL) ulushi, stress-test natijalari kabi ko'rsatkichlar asosida baholash tartibi joriy etilgan [13]. Masalan, 2023-yil yakunlariga ko'ra, banklarning kapital yetariligi ko'effitsiyenti o'rtacha 17,1% ni, 1-darajali kapital ko'effitsiyenti esa 14,3% ni tashkil etgani aniqlangan [14]. Bu ko'rsatkichlar Bazel III talablaridan yuqori bo'lishiga qaramasdan, xavflarni baholash va boshqarish amaliyoti hanuz to'liq avtomatlashtirilmagan.

Shuningdek, xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan Likvidlikni qamrab oluvchi ko'effitsiyent (LCR) va Barqaror moliyalashni ta'minlash ko'effitsiyenti (NSFR) O'zbekiston bank tizimida hozircha to'liq va ishonchli hisoblab chiqish mexanizmlari bilan ta'minlanmagan. Masalan, LCR bo'yicha ayrim banklar yuqori likvid aktivlar tarkibini noto'g'ri baholash holatlariga yo'l qo'ymoqda. Bu esa prudensial nazorat samaradorligini pasaytiradi [15].

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari moliyaviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda Bazel qo'mitasining qator prudensial talablari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Bazel standartlari bo'yicha asosiy prudensial talablar¹

№	Talab nomi	Izoh	Bazel me'yori (talabi)
1	Kapital yetariligi ko'effitsiyenti (CAR)	Riskka moslashtirilgan aktivlarga nisbatan umumiy kapital ulushi	≥ 8%
2	Asosiy kapital yetariligi ko'effitsiyenti (CET1 Ratio)	Juda yuqori sifatli kapitalning riskka moslashtirilgan aktivlarga nisbati	≥ 4.5%
3	1-darajali kapital yetariligi ko'effitsiyenti (Tier 1)	CET1 + Qo'shimcha 1-darajali kapitalning riskka mos aktivlarga nisbati	≥ 6%
4	Jami kapital yetariligi ko'effitsiyenti (Total Capital)	Tier 1 + Tier 2 kapitallarning riskka mos aktivlarga nisbati	≥ 8%
5	Likvidlikni qamrab oluvchi ko'effitsiyent (LCR)	30 kun davomida talab qilinadigan chiqimlarni qoplaydigan likvid aktivlar ulushi	≥ 100%
6	Sof barqaror moliyalash ko'effitsiyenti (NSFR)	1 yil va undan ziyod muddatdagi barqaror moliya manbalari ulushi	≥ 100%
7	Leveridj ko'effitsiyenti (Leverage Ratio)	Haqiqiy kapitalning umumiy ekspozitsiyaga nisbati (havfga qaramasdan)	≥ 3%
8	Kontsikli zaxira ko'effitsiyenti (CCyB)	Moliyaviy inqiroz davrida banklar kapitaliga qo'shimcha zaxira	0–2.5%
9	Bir mijozga nisbatan chek (Large Exposure)	Bir mijozga nisbatan eng ko'p kapital ulushi	≤ 25%
10	Bozor xavfi hisob-kitob usuli (Market Risk Framework)	Bozor xavflarini hisoblash uchun standart yoki ichki modellar qo'llaniladi	Bazel II va III
11	Operasion xavfni baholash	Bazel IIIga ko'ra Batafsil standartlashtirilgan yondashuv	Joriy qilingan

¹ Basel Committee on Banking Supervision (2011). Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Bank for International Settlements (BIS). – URL: www.bis.org/publ/bcbs189.htm



Yuqoridagi jadvalda har bir qoida uchun aniq va ishonchli me'yoriy ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, ular banklarning kapital yetariligi (CAR, Tier 1), likvidlik darajasi (LCR, NSFR), kredit siyosati (LDR), hamda kredit xavflari bilan bog'liq cheklovlar (NPL, yakka qarz oluvchi limiti) kabi muhim sohalarni qamrab oladi. Ushbu qoidalarning amalda samarali tatbiq etilishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, mijozlar ishonchini oshirish va bank tizimidagi sistemaviy xavflarni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bazel standartlari bank faoliyatini xalqaro me'yorlar asosida baholash, solishtirish va muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda ham mazkur standartlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi bank nazoratining sifatini oshirish va bozor intizomini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Tahlillar va tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, qator mamlakatlarda Bazel standartlari (Basel I, II, III) to'liq yoki qisman joriy qilingan, quyidagi jadvalda ayrim mamlakatlarda Bazel andozalari qay darajada qabul qilinganini aks ettiradi:

2-jadval. Bazel standartlarining mamlakatlar bo'yicha joriy etilishi²

№	Mamlakat nomi	Joriy qilingan standart	Joriy etish holati	Boshlanish sanasi
1	AQSH (USA)	Basel I, II, III	To'liq	2004 (II), 2013 (III)
2	Buyuk Britaniya (UK)			
3	Germaniya			
4	Yaponiya			
5	Fransiya			
6	Kanada			
7	Hindiston			
10	Braziliya	Basel I, II, III	To'liq	2013 (III)
11	Janubiy Koreya			2009 (II), 2013 (III)
12	Turkiya			
8	Rossiya	Basel I, II, III	Qisman	2008 (II), 2016 (III)
9	Xitoy			2008 (II), 2013 (III)
13	Qozog'iston	Basel II, III	Qisman	2014 (II), 2019 (III)
14	O'zbekiston	Basel II, III		2020 yildan boshlab

Yuqorida keltirilgan jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Bazel standartlari dunyodagi ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan to'liq yoki qisman joriy etilgan. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Kanada kabi rivojlangan mamlakatlar ushbu standartlarni to'liq qabul qilib, bank tizimlaridagi xavflarni baholash va boshqarishda yuqori shaffoflik va barqarorlikni ta'minlamoqda.

Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va O'zbekiston kabi mamlakatlar esa Bazel II va III standartlarini qisman joriy etgan bo'lib, bu mamlakatlarda xalqaro talablarga moslashish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Bazel standartlarini amalga oshirish sanalari mamlakatlar o'rtasida farq qiladi, bu esa milliy iqtisodiy va institusional sharoitlarga bog'liq. Xususan, O'zbekistonda Bazel II va III standartlari 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda, bu esa mamlakat bank tizimini xalqaro moliyaviy arxitekturaga moslashtirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda xalqaro moliyaviy nazorat tizimidagi eng muhim institutlardan biri — Bazel qo'mitasi va uning ishlab chiqqan standartlari (Basel I, Basel II va Basel III) tahlil qilindi. Bu standartlar orqali tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, xavflarni boshqarish qobiliyati va shaffof faoliyatini ta'minlash maqsad qilingan. Ushbu standartlarning kapital yetariligi, likvidlik, foydalanishning barqarorligi va xavflarni baholashdagi asosiy mezonlari tahlil qilindi. Shuningdek, turli mamlakatlar misolida ularning joriy etilish jarayoni va darajasi ko'rib chiqildi. O'zbekistonda ham 2020 yildan boshlab Basel II va Basel III standartlarining qisman joriy etilishi mamlakat bank tizimidagi transformatsiya jarayonlarining muhim bosqichi sifatida baholandi.

2 Basel Committee on Banking Supervision. Implementation of Basel standards. Bank for International Settlements (BIS), www.bis.org/bcbs/implementation.htm Central Bank of Uzbekistan. Annual Report 2022. www.cbu.uz IMF. Financial Sector Assessment Program Reports, 2021–2023, www.imf.org



Amalga oshirgan tahlillar va o'rganishlar hamda xulosalar asosida quyidagi takliflar ilgari surildi:

-O'zbekiston bank tizimida prudensial nazoratni yanada mustahkamlash uchun Basel standartlarini to'liq joriy etish yuzasidan ishlarni tizimli ravishda davom ettirish lozim;

-banklar uchun joriy qilinayotgan prudensial normativlarning mazmuni, hisoblash usullari va tahlil qilish mexanizmlari bo'yicha moliyaviy muassasalarda bilim va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur;

-Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan hisobot shakllarini xalqaro andozalarga muvofiq yangilash va avtomatlashtirish orqali nazorat sifatini oshirish maqsadga muvofiq;

-Bazel standartlari asosida ichki xavflarni baholash tizimini (IRB – Internal Ratings-Based approach) bosqichma-bosqich joriy qilish orqali banklar xavf profilini yaxshiroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, kapital yetariligini ta'minlash va likvidlikni barqarorlashtirishda Basel III doirasidagi LCR va NSFR koeffitsiyentlari talablariga amal qilish joriy etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Basel Committee on Banking Supervision. (1988). International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards (Basel I). Bank for International Settlements. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs04a.htm>
2. Basel Committee on Banking Supervision. (2004). International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework (Basel II). Bank for International Settlements. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs107.htm>
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2011). Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Bank for International Settlements. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs189.htm>
4. International Monetary Fund (IMF). (2020). Financial Sector Assessment Program – Prudential Regulation and Supervision Assessment. URL: <https://www.imf.org/en/Publications>
5. World Bank. (2021). Global Financial Development Report: Financial Stability and Prudential Regulation.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). 2022 yil uchun moliyaviy barqarorlik bo'yicha hisobot. – Toshkent: Markaziy bank nashri. URL: <https://cbu.uz>
7. Sultanov A.A. (2021). "Prudensial nazorat va uning bank tizimidagi o'rn". // Moliya va bank ishi, №4, Toshkent.
8. Ibrohimova Ye.B. (2022). "Bazel standartlarining O'zbekiston bank amaliyotida tatbiqi". // Iqtisodiy tahlil va amaliyot, №2.
9. Ernst & Young. (2020). The impact of Basel III on bank strategy, risk and capital planning. EY Global Financial Services.
10. European Central Bank. (2023). Banking Supervision Annual Report. Frankfurt.
11. IMF (2022). Financial Soundness Indicators Compilation Guide, International Monetary Fund. www.imf.org
12. Basel Committee on Banking Supervision (2011). Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Bank for International Settlements. www.bis.org
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). "Kommersiya banklari faoliyatini prudensial nazorat qilish qoidolari". www.cbu.uz
14. CBU Annual Report 2023. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti. www.cbu.uz
15. BIS. (2023). Liquidity coverage ratio disclosure standards. Basel Committee Publications. www.bis.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
